



# BUYUK ALLOMALARIMIZ E‘ZOZ TOPGAN ULUG‘VOR SAMARQANDDA XALQARO ANJUMANLARGA QIZG‘IN TAYYORGARLIK KO‘RILMOQDA

## Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-mart kuni Samarqandga tashrif buyurib, hududda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va kelgusidagi rejalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Imom Buxoriy majmuasini ziyorat qildi. Qur‘on tilovat etilib, duo o‘qildi.

— Kuni kecha xalqimiz bilan Navro‘z ayyomini kutib oldik. Bugun, muqaddas Ramazon oyida mana shu tabarruk joyga kelib turibmiz. Bu ulug‘ kunlarga tinchlik-xotirjamlikda yetkazgani uchun Yaratganga shukronalar aytamiz. Ilohim, hamisha yurtimiz tinch, elimiz farovon bo‘lsin, hamma xayrli niyatlarimiz amalga oshsin. Bu majmuani Imom Buxoriy bobomizga munosib tarzda quryapmiz. U ziyorat bilan birga ma‘rifat, tarbiya, ibrat o‘chog‘i bo‘lsin, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Imom Buxoriy maqbarasi butun islom olamida e‘zozli maskan. Ko‘p ming sonli ziyoratchilarga sharoitlarni kengaytirish maqsadida Prezidentimiz tashabbusi bilan bu yerda yangi majmuaga barpo etilmoqda.

Majmuaning umumiy maydoni 44 gektar. Bugungi kunda mahobatli maqbara, 10 ming kishiga mo‘ljallangan masjid qurib bitkazilgan. Balandligi

75 metrlik 4 ta minora majmuaga ulug‘vorlik bag‘ishlagan. Shuningdek, muzey, ayvonlar, ma‘muriyat va xizmat ko‘rsatish binolari barpo etilgan.

Ayni paytda pardozlash ishlari olib borilmoqda. Bunda milliy an‘analar va issiq ranglardan foydalanilmoqda. Peshtoqlar va ayvon devorlariga “Sahihi Buxoriy”dan hadislar bitiladi.

Bundan tashqari, hududda ikki ming o‘rinli yigirmadan ortiq mehmonxona, xiyobonlar, xizmat ko‘rsatish shoxobchalari barpo etiladi.

Bu yil yurtimizda Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligi keng nishonlanadi. Shu haqdagi Prezident qarorida kalom ilmi sultonining Samarqand shahridagi majmuasini qayta ta‘mirlash va obodonlashtirish belgilangan.

Tashrif chog‘ida Prezidentimizga ushbu loyiha taqdimot qilindi.

Qayd etilganidek, Moturidiy majmuasida 1 ming 500 kishiga mo‘ljallangan jome masjid, ma‘muriy bino qurilishi ko‘zda tutilgan. U yerda kutubxona,

majlislar zali, innovatsion muzey hamda mutaxassislar uchun xonalar bo‘ladi. Majmuaga yaqinida avtoturargoh tashkil etiladi, ziyoratchilar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratiladi.

Imom Abu Mansur Moturidiy islom olamida itiloflar avj olib, har xil firqalar ko‘paygan paytda yashagan, butun hayotini islomiy aqidani himoya qilish va ma‘rifatini yoyishga bag‘ishlagan. U zotning moturidiylik ta‘limoti, “Ta‘vilotul Qur‘on”, “Kitob at-Tavhid” kabi asarlari bag‘rikenglik va mo‘tadillik tamoyillari bilan ahli sunna val-jama‘aning ma‘naviy asoslariga aylangan.

Davlatimiz rahbari bu tamoyillar bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib borayotganini ta‘kidlab, alloma bobomizning merosini yanada keng o‘rganish va jahonga targ‘ib etish, majmuaga keluvchilarga sharoitlarni kengaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Yana bir xayrli loyiha — Oqdaryo tumanidagi Mahdumi A‘zam qadamjosini obod qilishga qaratilgan. Asli hozirgi Kosonsoy tumanida tug‘ilgan so‘fiy

olim naqshbandiya ta‘limotining rahnamolaridan biri bo‘lgan. Ilm va din yo‘lidagi uzoq safardan so‘ng, Samarqandda abadiy qo‘nim topgan.

Bu maskanga keluvchi ziyoratchilar ham ko‘p. Ularga sharoitlarni yaxshilash maqsadida majmuaga hududida qurilish-obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi, bugungi kun talablariga mos qo‘shimcha qulayliklar yaratiladi.

Taqdimot chog‘ida Samarqand zaminidan yetishib chiqqan boshqa olim va mutafakkirlar, aziz avliyolarning qadamjolari ham bosqichma-bosqich ta‘mirlanib, obod qilinishi aytiladi.

So‘nggi yillarda eng zamonaviy standartlarga mos infratuzilma yaratilgani tufayli Samarqand shahri xalqaro miqyosdagi yirik tadbirlar — oliy va yuqori darajadagi sammitlar, konferensiya va kongresslarning an‘anaviy mezbongiga aylandi.

2022-yilda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan “Buyuk ipak yo‘li” majmuasi bunyod etilgani bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqib, Samarqandning

xalqaro markaz sifatidagi salohiyatini yanada oshirdi.

Shavkat Mirziyoyev ushbu Xalqaro turizm markaziga tashrif buyurib, olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, yaratilayotgan sharoitlar bilan tanishdi. Majmuada xorijiy delegatsiyalar va sayyohlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, qulayliklarni kengaytirishga qaratilgan muayyan ishlar olib borilmoqda, qator yangi obyektlar qurilmoqda.

Jumladan, markaz hududida umumiy maydoni 1150 kvadrat metr bo‘lgan yirik konsert zali barpo etilmoqda. 100 kishini qabul qila oladigan madaniyat maskani zamonaviy akustika uskunalar bilan jihozlanmoqda.

Prezidentimiz xorijiy delegatsiyalar, ikki tomonlama uchrashuvlar uchun qulayliklarni oshirish bo‘yicha tavsiyalar berdi.

Shu yerning o‘zida Samarqand viloyati hokimi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuzasidan davlatimiz rahbariga hisobot berdi.

Ta‘kidlash joiz, joriy yilda Samarqandda yirik xalqaro anjumanlar bo‘lib

o‘tadi. Bugungi kunda “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti va Iqlim forumi, “Markaziy Osiyo — Ko‘rfaz arab davlatlari” sammiti, UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasini o‘tkazishga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahriga tashrif yakunida Hazrati Hizr majmuasida bo‘lib, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov maqbarasini ziyorat qildi.

Qur‘on o‘yatlarini tilovat etilib, duo o‘qildi.

Marhumlarning yaxshiliklarini eslash, qabristonlarni obodonlashtirish xalqimizning ezgu qadriyatlaridan. Ushbu maqbara ham Prezidentimiz boshchiligidagi qurilgan, aziz ziyoratgohga aylantirilgan. Muborak Ramazon oyida bunday ezgu amallar barcha joylarda yorqin namoyon bo‘lmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
G‘olib HASANOV,  
O‘ZA muxbirlari

## EKOLOGIYA VA HUQUQ

### USHBU YO‘NALISHDAGI MASALALAR HAR QACHONGIDAN-DA DOLZARB

Ekologik inqirozlar bugun global miqyosda hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolardan biriga aylandi. O‘zbekiston uchun ham atrof-muhitni muhofaza qilish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Mutaxassislar fikricha, har daqiqada mamlakatimiz hududining 9 kvadrat metri cho‘lga aylanib boryapti. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma‘lumotiga ko‘ra, mamlakatimizda sudvon yillik foydalanish ko‘rsatkichi 169 foizni tashkil etadi. Bu esa kelajakda suv tanqisligi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishidan dalolat beradi.

Ekologik muammolarni tizimli hal etish muhimligini inobatga olib, Prezidentimiz tashabbusi bilan 2025-yilga “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”, deb nom berildi. Zero, mamlakat uchun asosiy vazifa ekologik mo‘tadillikni ta‘minlashdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun esa jamiyatdan chora-tadbirlar rejasini qabul qilish talab etiladi. Ular orasida huquqiy siyosat strategik ahamiyatga ega. Chunki barcha vakolatli organ faoliyatida ko‘zlangan maqsadlarga erishish huquqiy siyosatning sifatli va puxta o‘ylanganiga bog‘liq.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi tahlili atrof-muhitni muhofaza qilish



sohasidagi huquqiy siyosatni amalga oshirishning qator muhim yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Avvalo, huquqiy siyosatning asosiy vazifasi ekologiya sohasida yangi konstitutsiyaviy kafolatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat. Referendumda

umumxalq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor ekologik huquqlar mustahkamlandi. Davlat dasturi tahliliga ko‘ra, mazkur hujjatning maqsadlari konstitutsiyaviy kafolatlarni amalga oshirishga qaratilgan.

► Davomi 3-betda

## XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI

### ANIQLANGAN MUAMMOLAR SAMARALI HAL ETILMOQDA

Bugun xizmat ko‘rsatish sohasi dunyo iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir. Jahon yalpi ichki mahsulotida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi o‘rtacha 61 foizni tashkil etayotgani buning tasdiqi.

Mamlakatimizda ham bu tarmoqda katta imkoniyatlar bor. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan uch yil oldin qabul qilingan dastur buni amalda isbotladi. Jumladan, 3 yilda servis sohasida 1,5 million kishi doimiy daromadga ega bo‘ldi. Xizmat ko‘rsatish qiymati 65 milliard dollarga oshdi. Ayniqsa, axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, turizm, aviatsiya, ta‘lim va tibbiyot sohaslarida katta yutuqlar qo‘lga kiritildi.

So‘nggi sakkiz yilda aholi daromadi va to‘lov qobiliyati 2 karra o‘sgani natijasida xizmatlarga talab ortyapti. Buning uchun mutasaddi tashkilotlar xizmat turlarini ko‘paytirish bo‘yicha har kuni izlanishi, tadbirkorlarga yo‘l ochishi kerakligi yana bir bor o‘z tasdiqini topmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish borasida qator vazifalar belgilangan ham bejiz emas. Xususan, joylarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish hajmini 3 barobar oshirish, o‘rta va

yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko‘p bo‘lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, axborot texnologiyalari, ta‘lim, tibbiyot, yuridik, san‘at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan markaziy ko‘chalarni tashkil etish orqali 36 mingta savdo va servis obyektlari ochish, xalqaro avtomobil yo‘llari bo‘yida 6 mingta savdo va servis obyektlari qurish rejalashtirilgan. Bu borada yetakchi loyiha tashkilotlarini jalb qilib, bozorlarni zamonaviy, qulay, barcha xavfsizlik talabiga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish ayni maqsadlarga xizmat qiladi.

Joriy yil 7-fevral kuni Prezidentimiz raisligida hududlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida mas’ullar oldiga mavjud imkoniyatlarni ishga solish, keng qamrovli chora-tadbirlarni ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

► Davomi 4-betda

## NIHOLLAR DARAXTGA, KICHIK BIZNESLAR BRENDGA AYLANADI

Erta bahorda nish otgan urug‘ yoki o‘tqazilgan nihol avvaliga juda nafis va nimjon bo‘ladi. Agar u yaxshi parvarishlansa, g‘amxo‘rlik qilinsa, kun kelib, serhosil ekin, basavlat daraxtga aylanadi va mo‘l hosil beradi. Aks holda, qurib-qaqshab, nobud bo‘lishi hech gap emas.

Tadbirkorlikning kichik va o‘rta biznes sohasi ham xuddi shunday. Agar endi ish boshlayotgan tadbirkorga davlat tomonidan kerakli shart-sharoit yaratilib, turli imtiyozlar bilan qo‘llab-quvvatlansa, katta kompaniya, brendga aylanganda davlat va jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shadi. Shu bois, oxirgi yillarda O‘zbekistonda bunday ishbilanmonlar faoliyatini kengaytirishi uchun qulay sharoit yaratish bo‘yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Buni shu yil 19-mart kuni Prezidentimizning kichik va o‘rta biznes

vakillari bilan uchrashuvda aytilgan fikrlar ham tasdiqlaydi.

Bu uchrashuvning ko‘klamda, Navro‘z bayrami arafasida bo‘lganida chuqur ma‘no bordek, nazarimda. Sababi nihollar singari tadbirkorlikda endi o‘z salohiyatini ko‘rsata boshlagan kichik va o‘rta biznes sohasi vakillari uchrashuvdan katta kuch va ruh oldi. Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslar, kelgusida ular uchun joriy etiladigan yangi imtiyoz va imkoniyatlar haqidagi so‘zlari bayram sovg‘asidek manzur bo‘ldi.

► Davomi 2-betda





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

Tonggi shiddat bilan harakatlanayotgan shahar ko'chalarida hayot o'ziga xos shovqin-suron bilan davom etmoqda. Taksilar shoshib harakat qiladi, odamlar ishga o'tlanadi, bozorlarda savdo qiziydi. Ammo bularning orasida ko'zga u qadar tashlanmaydigan, biroq jamiyatni ichdan yemirib boruvchi bir illat bor — korrupsiya.



Shuhrat SIROJIDDINOV, akademik

Kechagina yo'l chetida bir guruh yoshlarning subhatiga bexos quloq musofiri bo'lib qoldim. Ular kimdir kutib turishar, turli mavzularda o'zaro bahslashar edi. Gapdan gap chiqib, ulardan biri bunday dedi:

— Yo'l chetiga mashina qo'ysang, endi YPX emas, PXX kelib jarima yozadigan bo'ldi. Bu ham, bir tomondan, to'g'ri, tartib uchun kerak. Lekin ikkinchi tomondan, ba'zi hollarda odamda "Muammoni oson hal qilish uchun qo'shimcha yo'l bormi?" degan fikr paydo bo'ladi.

Ikkinchisi bu fikrni qo'llab-quvvatlab qo'yd:

— Har narsada elektron tizim joriy qilindi, ish bitirish osonlashdi, lekin baribir ba'zi odamlar eski odatlarini tashlab olmayapti. Masalan, o'tgan hafta bolamni bog'chaga joylashtirdim, barchasi rasmiy tarzda bajarildi, hech qanday muammo bo'lmadi. Lekin navbatda turgan ba'zi ota-onalar hali ham "tezroq hal bo'lishini" istab, kimnidir qidirayotganini ko'rdim.

Ular subhatlashar ekan, o'nga toldim. Haqiqatan, so'nggi yillarda davlat xizmati ko'rsatish tizimida juda katta o'zgarishlar bo'ldi. Oldin biror hujjat olish uchun kunlab sarson bo'lib, eshikma-eshik yugurish kerak bo'lsa, bugun internet orqali murojaat qilish va joydan turmay natija olish mumkin. Shu bilan birga, odamlarning o'zlari ham yangicha ish uslubiga to'liq ko'nika olmayapti.

# KORRUPSIYA — jamiyat tanasidagi saraton

# INSON BO'LIB YASHASHNING

## NARXI QANCHA?

Ko'p hollarda maishiy korrupsiya ayni shu odatlardan kelib chiqadi. Ilgari qandaydir masalani hal etish uchun "tezlashtirish yo'llari"ni qidirib o'rganib qolgan odam hozir ham shunday yo'l tutishga moyil bo'lib qoladi. Vaholanki, bugun barcha masalalarni rasmiy va qonuniy tarzda hal qilish mumkin. Bu boradagi eng katta vazifa esa nafaqat davlat tizimiga, balki jamiyatning o'ziga ham bog'liq. Shuning uchun ham bugungi islohotlar nafaqat qonunchilikni takomillashtirish, balki odamlar ongini o'zgartirishga ham qaratilgan. Haqiqiy o'zgarishga erishish uchun eskicha tanish-bilishchilik tushunchasidan butunlay voz kechish kerak. Faqat shundagina haqiqiy adolat va shaffolikka erishish mumkin. Chunki davlat tomonidan jamiyatni korrupsiyadan tozalash bo'yicha qat'iy choralar ko'rilmog'chi.

balki korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish, jamiyatda shaffof muhitni shakllantirishga qaratilgan. Ilgari odamlar hujjatlarini rasmiylashtirish uchun oylab turli idoralarga qatnashi, tanish-bilish qidirishi, ortiqcha qog'ozbozlik bilan ovora bo'lishiga to'g'ri kelardi. Hozir esa barcha asosiy davlat xizmatlari elektron shaklga o'tkazildi, hujjatlarini yig'ish va rasmiylashtirish jarayonlari avtomatlashtirildi.

Masalan, bugun kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish onlayn tarzda amalga oshiriladi, bu esa yer ajratishda tanish orqali ish bitirish amaliyotini qisqartirdi. Davlat xaridlari shaffolashdi, har qanday tender jarayoni onlayn kuzatib boriladi. Natijada 2020-yildan buyon 3,6 trillion so'm byudjet mablag'i tejaldi. Sud tizimida raqamlashtirish korrupsiya xavfini kamaytirdi — hujjatlarini sun'iy kechiktirish, "moliyaviy rag'batlantirish" orqali ish yuritish imkoniyati cheklandi.

Bundan tashqari, ta'lim tizimida ham katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Ilgari oliy ta'limga o'qishga kirishda pora berish yoki tanish topish kabi salbiy holatlar ko'p uchir edi. Hozir esa test sinovlari shaffof o'tkazilmog'chi, onlayn kuzatuv mexanizmi joriy etildi. Natijada faqat bilim bor talabalar o'qishga qabul qilinishi ta'minlandi.

Shu kabi tizimli islohotlar tufayli jamiyatda adolat va shaffolikka intilish kuchaymog'chi. Biroq eng katta vazifa odamlarning o'ziga bog'liq korrupsiyadan xalos bo'lish uchun nafaqat davlat mexanizmlari, balki har bir inson ongining o'zgarishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bugungi kurash korrupsiyaga qarshi jazolash emas, balki uning sabablarini yo'q qilishga qaratilgan. Jamiyatda adolat tamoyillari ustuvor bo'lgandagina davlat haqiqiy rivojlanish yo'lga chiqadi.

### Shaxsiy mas'uliyat

2025-yil 5-mart kuni Prezidentimiz raisligida Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining korrupsiyaning oldini olish

bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Bu yig'ilish mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi keng ko'lami islohotlar, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri va kelgusidagi ustuvor vazifalarni belgilab olish nuqtayi nazaridan g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

Prezidentimiz o'z nutqida mamlakatdagi islohotlar hal qiluvchi bosqichga kirgani, shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi, balki har bir fuqaro uchun hayotiy ahamiyatga ega masala bo'lishi kerakligini ta'kidladi. "Takor va takror aytamiz: biz ochiqlik siyosatini, so'z erkinligi g'oyalarni hayotga tatbiq etishda hamisha qat'iy bo'lamiz!" degan so'zlar bu borada davlatning aniq pozitsiyasi ifodasi bo'ldi.

Yig'ilishda so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashda erishilgan natijalar tahlil qilinib, qator muhim masalalar muhokama qilindi. Avvalo, davlat boshqaruvi va jamiyatda shaffof muhitni shakllantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, byudjet mablag'laridan foydalanishda ochiqlikni ta'minlash yo'lidagi islohotlar haqida so'z bordi. Yig'ilishda yoshlar orasida korrupsiyaga qo'rsatish madaniyatini shakllantirish masalasiga ham alohida e'tibor qarantildi. Prezident yosh avlod ongida halollik, adolat va shaffolikni targ'ib qilish muhimligini ta'kidladi. Shu maqsadda korrupsiyaga qarshi loyihalar bo'yicha ta'lim muassasalarida maxsus dasturlar joriy etilishi, talabalar va o'quvchilar orasida korrupsiyaga qarshi loyihalar va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Ko'tarilgan eng muhim masalalardan biri jamiyatning o'zi korrupsiyaga murosasiz bo'lishi zarurligi haqida bo'ldi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, agar odamlar korrupsiyani oddiy holat sifatida qabul qilishda davom etsa, unga qarshi har qancha qonun va jazo choralari ishlab chiqilmasin, baribir kutilgan



natijaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun bu illatga qarshi kurashish faqat huquq-tartibot idoralarning vazifasi emas, balki butun jamiyatning burchi ekanini qayd etildi.

Yig'ilish davomida erishilgan natijalar va ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Ochiqlik bo'yicha xalqaro reytinglarda O'zbekiston 138 pog'onaga ko'tarilib, dunyoda 30-o'ringa chiqdi. Sud-huquq tizimida shaffoflik oshgani sababli odil sudlovga ishonch kuchaydi, mahalliy hokimiyat idoralari esa byurokratik to'siqlar sezilarli darajada kamaydi. Raqamlashtirish orqali fuqarolarga davlat xizmatlari ko'rsatishda inson omili qisqargani esa korrupsiya xavfini pasaytirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

### Haqiqiy g'alabaga qanday erishiladi?

Korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat davlat siyosatining bir qismi, balki jamiyatning o'z kelajagini qanday tasavvur qilishiga bog'liq ulkan sinovdir. Bu illatga qarshi kurash qandaydir kompaniya yoki vaqtinchalik choralar majmuasi emas, balki tinimsiz va izchil, uzoq muddatli jarayondir.

Yig'ilish yakunida Prezident aynan shu nuqtaga urg'u berib, korrupsiyaga qarshi kurashda faqat davlat emas, balki butun jamiyat, har bir fuqaro faol ishtirok etishi lozimligini ta'kidladi. Korrupsiyaga qarshi kurash hech qachon aniq muddat bilan cheklanmasligi, bu butun jamiyatning ishi ekaniga urg'u berildi. Bu nafaqat davlat idoralari xodimlari, balki har bir insonning ongida javobgarlikni uyg'otishi lozim bo'lgan da'vatdir.

Korrupsiya ustidan haqiqiy g'alabaga erishish uchun, eng avvalo, ildizini quritish zarur. Qonunlar va jazo choralari korrupsionerlarni jazolashga xizmat qiladi, ammo uning kelib chiqish sabablarini yo'q

qilish uchun jamiyatda mutlaqo yangi madaniyat shakllanishi kerak. Bu halollik, shaffollik va mas'uliyat hissi ustuvor bo'lgan madaniyatdir. Har bir inson o'z haq-huquqini yaxshi bilishi, har bir amaldor halol bo'lishi, o'z ishini vijdonan bajarishi, qonunlarga hurmat bilan munosabat qilishi lozim.

Poraxo'rlikka murosasizlik oilalardan boshlanishi kerak. Bolalarga hali maktab yoshidayoq halollik nima ekanini o'rgatish, ularning ongida adolati jamiyatda yashash hissini shakllantirish zarur. Agar ota-ona farzandiga "ishni bitirishning oson yo'li"ni emas, balki halol mehnat orqali erishiladigan muvaffaqiyat yo'lini ko'rsatsa, kelajakda yurtimizda korrupsiyaga o'rin qolmaydi.

Halol mehnat va tinimsiz ay-harakatlar bilangina haqiqiy taraqqiyot erishish mumkin. Korrupsiya bo'lgan jamiyatda qonunlar ham, teng imkoniyatlar ham faqat qog'ozda qoladi. Shunday ekan, ushbu illatga qarshi kurashish nafaqat davlat rahbarlari, qonunchilik va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning, balki har bir fuqaroning burchidir.

Bu yo'lda eng katta mas'uliyat ziyolilar, o'qituvchilar, ommaviy axborot vositalari xodimlari va faol fuqarolar zimmasiga tushadi. Jamiyatda adolat va halollik me'yorga aylanishi uchun bu tushunchalar har bir muhokama, har bir ma'ruza, har bir subhatda aks etishi lozim.

Bugungi islohotlar aynan shu maqsadga qaratilgan. Korrupsiyasiz kelajakni yaratish uchun har birimiz uning shakllanishiga yo'l qo'yamsligimiz, o'z hayotimizda halollik va vijdonlilikni birinchi o'ringa chiqarishimiz lozim. Shuning uchun ham korrupsiyaga qarshi kurashish faqat davlatning emas, balki har bir fuqaroning qo'lidadir. Barchamiz qonun ustuvorligi, tenglik va adolat prinsiplari uchun mas'ul ekanimizni anglasak, shundagina haqiqiy toza jamiyat va yorug' kelajakni barpo eta olamiz.



Boshlanishi 1-betda

# NIHOLLAR DARAXTGA, KICHIK BIZNESLAR BRENDGA AYLANADI



## LOYIHAM "CHEMPION" BO'LADI


Shahzod UMRZOQOV, Toshkent shahridagi "TASS VISION" kompaniyasi rahbari:

— Prezidentimiz dunyoda sun'iy intellekt, innovatsiya, raqamli va "yashil" texnologiyalar, kreativ xizmatlar orqali "katta sakrash" bo'layotganini ta'kidladi. XXI asr sun'iy intellekt asri bo'lib bormog'chi. Ayni shu yo'nalishda faqat O'zbekistonda emas, MDH, Turkiya, Moldova, BAAda faoliyat yuritayotgan kompaniya rahbari sifatida bunga guvoh bo'lyapman. Sun'iy intellekt asosida yaratgan algoritmlimiz chakana savdo muassasalari daromadini ortishiga ko'mak beradi.

Ushbu algoritimga asoslangan "aqli" kameramizni tadbirkorlar o'z do'konlariga o'rnatib, uskuna sun'iy intellekt yordamida yerga qancha iste'molchi kirdi, qaysi mahsulotga ko'proq e'tibor berdi yoki mahsulotning qanchasi sotilgani to'g'risida kerakli marketing tahlilini amalga oshiradi. Bu bilan do'kon egasi o'z iste'molchilarining yosh toifasi, qaysi mahsulotga talab yuqori ekanini aniqlab olishi va buni savdosini oshirishda qo'llashi mumkin. Ayni paytda uskunamizdan yuqorida sanalgan davlatlardan 1700 ta do'kon foydalanib keladi.

Davlatimiz rahbari bilan uchrashuvda faoliyatimiz haqida so'zlab berdim. Prezidentimiz yangi loyihalarim bilan jonajon vatanimiz kelajagiga katta hissa qo'shishimga ishonch bildirdi.

Bildirilgan ishonch meni olg'a intilishga ruhlantirdi hamda Prezidentimiz ta'rif bilan aytganda, biznesimni tez sur'atda kengaytirib, "champion" loyihaga aylantirishni maqsad qildim. Aslida, kompaniyamiz bahosi tez sur'atda ko'tarilib bormog'chi. O'tgan yili xalqaro tashkilotlar uning qiymatini 7 million dollar qilib ko'rsatgan. Keyingi uch yilda kompaniya qiymatini 50 million dollarga, uskunamizdan foydalanayotgan savdo muassasalari sonini 1700 tadan 50 mingga ko'paytirishni maqsad qilganman.



**Davlatimiz rahbari bilan uchrashuvda faoliyatimiz haqida so'zlab berdim. Prezidentimiz yangi loyihalarim bilan jonajon vatanimiz kelajagiga katta hissa qo'shishimga ishonch bildirdi.**



## YANGI IMTIYOZLI KREDITDAN FOYDALANIB, 100 KISHINI ISH BILAN TA'MINLAMOQCHIMAN

Noilaxon ESHONXO'JAYEVA, Xo'jaobod tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor:

— 2022-yilda yaratib berilayotgan sharoitlar, ayniqsa, ishbilanmon ayollar muntazam qo'llab-quvvatlanayotganini eshitib, tadbirkorlik bilan shug'ullanishni maqsad qildim. Tijorat bankidan 35 million so'm imtiyozli kredit olib, paypoq ishlab chiqaruvchi bitta dastog' bilan ish boshladim.

Avvaliga uy-ro'zg'or, bola-chaqadan ortib paypoq ishlab chiqarishni ham eplay olishimga ko'zim yetmagandim. Katta foyda qilmasam ham mayli, deb tavakkaliga ish boshlagan edim. Ammo imtiyozli kredit hamda tadbirkorlarga yaratib berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib,

2024-yilda, ya'ni atigi ikki yilda bitta dastog'imni 6 taga yetkazdim. Faoliyatim kengaydi.

Mahsulotim faqat mahalliy emas, xorijiy bozorlarda ham sotilmog'chi. O'zimga ishonchim boradi, biznes loyihamni yanada kengaytirish borasidagi yangi loyihalar to'g'risida bosh qotira boshladim.

Davlatimiz rahbarining kichik va o'rta biznes vakillari bilan uchrashuvida biz, ishbilanmonlarga berilayotgan yangidan yangi imkoniyat va imtiyozlar haqida eshitib, shijoatimga shijoat qo'shildi. Ayniqsa, Prezidentimiz ayol tadbirkorlarga kredit stavkasi boshqalarnikiga nisbatan 2 foiz arzon bo'lishini aytganda, mana, biznesimni kengaytirishim uchun katta imkoniyat, deya ich-ichimdan xursand bo'ldim. Davlatimiz

rahbariga faoliyatim haqida so'zlab berar ekanman, kelgusida xuddi mana shu imtiyozdan oqilona foydalanib, 100 kishining bandligini ta'minlashga va'da berdim.

Prezidentimizning uchrashuvdagi har bir so'zi meni yangi marralarga undadi. Ayniqsa, uy-ro'zg'or va farzand tarbiyasidan ortib, tadbirkorlik bilan odamlarni ishli, daromadli qilayotgan ayollarimizga har qancha rahmat ayttsak arziydi, degan so'zlari biz — ayollarning kichik mehnatimizga yuksak baho sifatida yuragimga muhrlandi. Prezidentimizning bizning hayotimiz, o'y-xayollarimizni qanchalik teran anglashiga qo'yil qoldim. Uchrashuvda ulkan taassurotlar, yangi g'oya va fikrlar olib, yeng shamarib, o'z ishimni davom ettirishga, ulkan marralarni zabt etishga kirishdim.

## ENG MUHIMI — YAXSHI BIZNES G'OYA, MABLAG' VA JOY

Mustafo MINGBOYEV, Toshkent shahridagi "MINGBOYEV ROBOTICS" korxonasi rahbari:

— Korxonamiz yuqori texnologik bionik protez (qo'l,oyoq), ekzoskelet ishlab chiqaradi. Bionik protezning oddiydan farqi — vazifa bajaradi. Bemor kundalik ish faoliyatini amalga oshira oladi. Bu mahsulot mamlakatimizda, xususan, Markaziy Osiyoda faqat bizning korxonada ishlab chiqariladi. Nogironligi bor odamlarga xizmat ko'rsatganimiz uchun o'ziga xos qulayliklarga ega binoga ehtiyojimiz bor edi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbarini faoliyatimiz bilan tanishtirdim. U kishi bizning joy muammomizni ijobiy hal etib berdi. E'tiborli jihati, Prezidentimiz birgina buni bartaraf etish bilan cheklanmadi, balki yuqori texnologiyali mahsulot yaratadigan

tadbirkorlarga 10 ming kvadrat metr gacha bo'lgan davlat obyektlari 5 yilga bepul ijara beriladigan bo'ldi. Shuningdek, endi tadbirkorlarni qiziqtirayotgan yer-joy, binolar, birinchi navbatda, auksionda sotuvga chiqarilishi belgilandi. Bu esa kelgusida biz kabi tadbirkorlar bunday muammoga duch kelmasligiga zamin yaratadi.

Tadbirkorlarga ish boshlash uchun yaxshi bir biznes g'oya, mablag' va joy kerak. Prezidentimiz uchrashuvda shunday tizim va tashabbuslarni ilgari surdiki, ishbilanmonlarda bunday ehtiyojlar paydo bo'lmaydi.

Uchrashuvda mablag'i yo'q insonga imtiyozli kreditlar berilishi, tadbirkorlik qilish uchun binoga ehtiyoj borlar joy bilan ta'minlanishi, hatto davlat tomonidan tashkil etiladigan loyihaga o'zlashtirishga yaxshi biznes loyiha tuzishga ko'maklashishi aytili.

Bir so'z bilan aytganda, endi tadbirkorlik qilmoqchi bo'lgan insonga kuchli xohish va g'ayrat-shijoatning o'zi kifoya bo'ladi.

Davlatimiz rahbariga korxonamizni markazga aylantirish, unda sohamiz bo'yicha kadrlar tayyorlash xizmatini, shuningdek, ishlab chiqarayotgan mahsulotlarimizni yanada ko'paytirish, xususan, simulyatsion maneken tayyorlashni yo'lga qo'ymoqchi ekanimizni bildirdim. Shu kungacha ko'ngli yarim 100 ga yaqin yurtdoshimizga baxt ulashgan bo'lsak, kelgusida bu sonni karrasiga oshirishimizni aytdim. Davlatimiz rahbari barcha taklif-mulohazalarimni qo'llab-quvvatlagi va kerakli tavsiyalarini berdi.

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri Sanjar ESHMURODOV yozib oldi.**

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili

Boshlanishi 1-betda

KONSTITUTSIYADA DAVLATNING ATROF-MUHITNI YAXSHILASH, TIKLASH VA MUHOFAZA QILISH HAMDA EKOLOGIK MUVOZANATNI SAQLASH BO‘YICHA MAS‘ULIYATI HAM BELGILAB QO‘YILGAN. OROLBO‘YINING MUHOFAZASI VA RIVOJLANISHI ALOHIDA QAYD QILINGAN.

EKOLOGIYA VA HUQUQ

USHBU YO‘NALISHDAGI MASALALAR HAR QACHONGIDAN-DA DOLZARB



Abdulaziz RASULEV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

Asosiy qonunning 49-moddasiga muvofiq, davlat qulay atrof-muhit, uning holati to‘g‘risida ishonchli ma‘lumot olish, shaharsozlik hujjatlari loyihalari muhokama qilishda jamoatchilikning ishtirok etish huquqini ta‘minlaydi. Ushbu kafolatni ro‘yobga chiqarish uchun mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, toza va obod muhit yaratish, aholi salomatligini mustahkamlash, o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ko‘paytirish va kelajak avlod uchun asrab-avaylash, bioxilma-xillikni ta‘minlash davlat dasturini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi.

Bunday yondashuv aniq amaliy chora-tadbirlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Jumladan, piyodalar va alohida veloped yo‘laklari bo‘ylab daraxt va ko‘chatlar ekish orqali “Soyali sayr ko‘chalari” tarmog‘ini yaratish, ekologik faol fuqaro turmush tarzini targ‘ib qilish orqali “Bir million yashil oila” umumxalq harakati yo‘lga qo‘yilishi bunga misol bo‘la oladi.

Konstitutsiyada davlatning atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish hamda ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha mas‘uliyati ham belgilab qo‘yilgan. Orolbo‘yining muhofazasi va rivojlanishi alohida qayd qilingan.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun davlat tomonidan Orol dengizi tubida 100 ming gektar “yashil qoplama” barpo etish, o‘rmonlar maydonini 4,1 million gektarga, jumladan, Orolbo‘yi hududida 2,1 million gektarga yetkazish, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarni 14,5 foizgacha kengaytirish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarining tanlangan hududlarida sho‘r hamda quq‘oqchilik chidamli o‘simliklardan bog‘lar yaratish maqsad qilingan. Shuningdek, “Orol vodiyi” iqlim texnologiyalari ekspozitsiyasini tashkil etish rejalashtirilgan.

Huquqiy siyosat sohasida davlat dasturining o‘ziga xos jihati qabul qilinishi rejalashtirilgan

normativ-huquqiy hujjatlarning aniq ko‘rsatilishidir. Umuman olganda, har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish yo‘nalishi bo‘yicha — 10 ta, barqaror iqtisodiy o‘rni orqali aholi farovonligini ta‘minlash yo‘nalishi bo‘yicha — 22 ta, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha — 36 ta, qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishi bo‘yicha — 28 ta hamda xavfsiz va tinchliksevar davlat tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo‘nalishi bo‘yicha — 5 ta, jami 101 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi rejalashtirilgan.

Ko‘rib turganingizdek, qabul qilinishi kerak bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning aksariyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga aloqador. Ekologik normativ-huquqiy hujjatlarning ulushi davlat dasturi doirasidagi barcha normativ hujjatlarning uchdan biridan ortiqni tashkil etadi.

Davlat dasturida taklif etilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari tahlil qilinsa, davlat tomonidan qonuniy yechim izlanayotgan muammolarni aniqlash mumkin. Bunday muammolar qatoriga mamlakatdagi ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta‘sir etuvchi ekologik qusurlarni bartaraf etish (plastik bilan ifloslanishni kamaytirish bo‘yicha Milliy strategiyani qabul qilish, issiqxona gazlari yetkazadigan zararni qoplash mexanizmlarini joriy etish), iqlim o‘zgarishi salbiy ta‘sirining oldini olish (“Iqlim o‘zgarishining oldini olish to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish), atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish (atmosfera havosini muhofaza qilishning uzoq muddatli strategiyasini qabul qilish, ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish) va boshqalar kiradi.

Davlat dasturida huquqiy siyosatni amalga oshirish, xalqaro hamkorlik doirasidagi chora-tadbirlar ham o‘z ifodasini topgan. Dastur



asosida xalqaro huquq normalari va xalqaro hamkorlikni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

Xususan, 13 ta xalqaro hujjat bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiyaning doimiy byurosiga O‘zbekiston vakilining nomzodini ko‘rsatish, zararli kimyoviy moddalar va xavfli chiqindilarni boshqarish bo‘yicha grant loyihasini amalga oshirish, suv-botoq hududlarining turizm salohiyatini muhofaza qilish va oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega.

Xalqaro hujjatlar qo‘shilish jarayoni boshlandi. “Atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlash erishish imkoniyati to‘g‘risidagi konvensiyaga

davlat ekologik siyosatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Sirkulyar iqtisodiyot va “yashil” texnologiyalar tamoyillarining ahamiyati ortib borayotgan bir vaqtda mintaqadagi ekologik vaziyat yomonlashuvi aholi salomatligi va atrof-muhit holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli ekoindustrial park (EIP)larni tashkil etish 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish doirasida O‘zbekistonning ustuvor ekologik tashabbuslaridan biridir.

Joriy yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti sanoatni rivojlantirishning ekologik barqaror modellarini o‘rganish va ilgari surish bo‘yicha ilmiy tadqiqot faoliyatini faollashtirdi. Xususan, institut tomonidan YUNIDO va GIZ ko‘magida amalga oshirilayotgan ikkita sanoat zonasini EIPga transformatsiya qilishni texnik qo‘llab-quvvatlash loyihasi bu yo‘nalishdagi muhim qadamlardan bo‘ldi.

Bunday loyihaning amalga oshirilishi institutning normativ-huquqiy bazani takomillashtirish orqali sanoat sohasiga innovatsion ekologik yechimlarni joriy etishga ko‘maklashish istagini namoyon etadi. Institut qonunchilik va huquqiy siyosat sohasidagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazi bo‘lib, faoliyatini O‘zbekistonda ekoindustrial parklarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish bo‘yicha huquqiy mexanizm va tavsiyalar ishlab chiqishga yo‘naltirgan.

Ekoindustrial parklarni tashkil etish Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili vazifalariga javob beradi. Yopiq sikl tamoyili bo‘yicha ishlaydigan EIP korxonalarini chiqindilarni va emissiyalarni minimalashtiradi. Bu esa atrof-muhitga bosimni kamaytiradi va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash orqali ishlab chiqarishning resurs samaradorligini oshiradi.

EIP uchun normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishning asosiy omilidir. Ekoindustrial parklar faoliyatining aniq qoida va standartlarni yaratish ekologik toza texnologiyalarga kapitalni jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish imkonini beradi.

Huquqiy nuqtayi nazaridan, ekoindustrial parklarni tashkil etish O‘zbekistonning milliy qonunchilik va xalqaro shartnomalarda mustahkamlangan atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tamoyillarini qo‘llashni namoyon etadi.

Umuman olganda, 2025-yil atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi huquqiy siyosat nuqtayi nazaridan samarali yil bo‘lishi kutilmoqda. Davlat dasturidagi huquqiy siyosat nafaqat hujjatlarni qabul qilish, balki tizimli chora-tadbirlar ko‘rishni ham qamrab oladi. Bizningcha, davlat dasturida nazarda tutilgan vazifalarni sifatli amalga oshirish uchun omilga bog‘liq.

**Birinchisi**, ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar qoidalarini amalga oshirishga tizimli yondashish zarur. Xususan, yangi normalarni joriy etish bo‘yicha barcha vakolatli tuzilmalar va ularning bajarilishini nazorat qilish mexanizmlarini belgilash.

**Ikkinchisi**, keng jamoatchilik, jumladan, ilmiy-tadqiqot va ekspert-tahliliy doiralarni tayyorlanayotgan normativ-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqish va muhokama qilishga jalb etish.

**Uchinchisi**, yangi chora-tadbirlarni amalga oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy oqibatlarini diqqat bilan muohaza qilish.

Har qanday holatda ham mamlakatimizning ekologik siyosatini sifatli va o‘z vaqtida huquqiy qo‘llab-quvvatlash istiqbolda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash sohasida ijroiy natijalarga erishish imkonini beradi.

“Dolzarb bir oylik” safarbarligi

SHAHNOZA OPANING BOG‘I

AVVAL CHO‘L EDI, ENDI GURKIRAGAN BO‘STON

Bu voqeaga o‘ttiz yilcha bo‘ldi. O‘shanda Shahnoza opa uyda bekori o‘tirmay, biror joydan yer olib, bog‘ yaratishni, dehqonchilik qilib, hech bo‘lmaganda ro‘zg‘or ehtiyoji uchun sabzavotlar yetishtirib, oilasiga nafi tegishni maqsad qilgandi.

Ammo buning uchun yer kerak edi. Yaqin atrofdan bo‘sh turgan joyning o‘zi yo‘q. Uyi yaqinida kattagina maydon bor. Lekin bu yerga ancha ter to‘kishga to‘g‘ri keladi. Qumli, sho‘r joyda biror nihol o‘stirishning o‘zi bo‘lmasa kerak. Tanishlaridan maslahat so‘ragan edi, baloga qoldi. Emishiki, bu cho‘lda saksovul-uy yantoqdan boshqasini ko‘kartiirib bo‘lmas emish. “Bekorga vaqt sarflab, sarson bo‘lganing qoladi”, deyishdi.

Bu gaplar uni biroz ikkilantirib qo‘ydi. Lekin maqsadini amalga oshirish yo‘lidani baribir qaytmadi. Turmush o‘rtog‘i esa, eng avvalo, yemi qonuniy yo‘l bilan olish lozimligini uqtirdi. Buning uchun Shahnoza opa tuman hokimligiga murojaat qiladigan bo‘ldi.

Bir oz ikkilangancha tuman hokimi qabuliga kirib borgan yosh ayol hadiksiragan ko‘yi rahbarga maqsadini tushuntirdi. Murojaatchining so‘zlarini eshitgan hokim negadir ajablanib qoldi. Undan nima maqsadida yer kerakligini qayta so‘radi. Aniq rejasi bilan yiqildi. Ayovling fikriga quloq tutganicha jim qoldi. Uning o‘ylanib qolganini ko‘rgan opaning ham shahshati pasayib, yig‘lab yuborishdan nari-beri holga keldi.

— Yer qarovsiz, bo‘sh joy, — deya sekin gapirgancha umid bilan rahbarga qaradi.

— Ey, nega xijolat bilan so‘raysiz. Dadil gapiring. Sizga rahmat, — deya hokim kuldi. — Jim qolganimga hayron qoldingiz shekilli. Buning sababi, shu paytga qadar tumanimizda biror xotin-qiz bog‘ yarataman, dehqonchilik qilaman, deya hokimlikdan yer so‘rab kelgan emas. Shuning uchun xursand holda o‘yga tolib qoldim. Boshqa tumanlarda xotin-qizlar tadbirkorlik qilayotganini, har bir sohada faol harakatda ekanini ko‘rib, havasim kelardi. Mana, birinchilardan bo‘lib siz tashabbuskorlikni boshlab beryapsiz. Buning uchun sizga rahmat. Kerakli hujjatlarni rasmiylashtirib, aytgan joyingizdan yer beramiz. Hech bir muammosiz ishni boshlayvering. Agar kimdir qarshilik qiladigan bo‘lsa, to‘g‘ri oldimga kelaversiz.

Muborak tumani hokimining oldidan ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilib chiqqan Shahnoza Rahmonova — Insonning qo‘lidan deganlaridek, har kuni shu yerda mehnat qilganim sari hudud chiroy ochib boraverdi. Yaxshigina yer ochilgach, ko‘pchilik qiziqib qoldi. Ba‘zilari mendan joyni tartibga keltirishdan ish boshladi. Shu paytgacha qarovsiz bo‘lgani sabab, maydon chiqindixonaga aylangandi. Bundan tashqari, yaqin atrofdan yangi uylar ko‘p qurilgani bois, qurilishdan chiqqan turli chiqindilar ham shu yerga tashlab keltilgandi.

— To‘rt yil deganda yemi foydalanish holatiga keltirib olganman, — deydi Shahnoza Rahmonova. — Insonning qo‘lidan deganlaridek, har kuni shu yerda mehnat qilganim sari hudud chiroy ochib boraverdi. Yaxshigina yer ochilgach, ko‘pchilik qiziqib qoldi. Ba‘zilari mendan joyni tartibga keltirishdan ish boshladi. Shu paytgacha qarovsiz bo‘lgani sabab, maydon chiqindixonaga aylangandi. Bundan tashqari, yaqin atrofdan yangi uylar ko‘p qurilgani bois, qurilishdan chiqqan turli chiqindilar ham shu yerga tashlab keltilgandi.



ekaniga ishonishi qiyin. Eng avvalo, shunday cho‘lda bitta nihol ko‘kartiirish uchun kishida yugurib bordim. Gaplarimni eshitgan rahbar o‘zi bosh bo‘lib shu joyning hujjatini qildirib berdi. Shundan so‘ng dastlab bu yerda daraxt ekishni boshladim. Ko‘rib turganingizdek, oldin bu joy faqat tashlandiq maydon edi. Devorning narigi tomoniga qarasangiz — saksovulzor. Chunki cho‘l hudud.

Bugun Shahnoza opaning bog‘iga nazar tashlagan odam bir paytlar tashlandiq joy ketaverib, hujjatlarni oxiriga yetkazib qo‘ymagan ekanman. Xavotirim ortgancha hokimlikka yugurib bordim. Gaplarimni eshitgan rahbar o‘zi bosh bo‘lib shu joyning hujjatini qildirib berdi. Shundan so‘ng dastlab bu yerda daraxt ekishni boshladim. Ko‘rib turganingizdek, oldin bu joy faqat tashlandiq maydon edi. Devorning narigi tomoniga qarasangiz — saksovulzor. Chunki cho‘l hudud.

Bugun Shahnoza opaning bog‘iga nazar tashlagan odam bir paytlar tashlandiq joy

yetishtiradi, desa ishonmasdim. Vodiya borib, bog‘bonlarning ishini ko‘rib, havasim keldi. Issiqxonada uzum hosil qilishda ham o‘z holicha saqlanib turibdi. Nasib etsa, men ham shu usulda hosil olishni maqsad qilganman.

Uchinchi issiqxonamiz kattaroq qilingan. To‘rt sotixli. Unda bodring, pomidor, ko‘katlar ekamiz. Sarimsoqpiyoz, kartoshka ham bor. Ayniqsa, qish va bahor oylarida ko‘katdan yaxshi foyda ko‘ramiz. Bozorga chiqarib ovora bo‘lmaymiz. Xaridorlar o‘zi olib ketadi. Toshkentda ham uyimiz bor. Farzandlarim oliyog‘hlarda o‘qimoqda. Gohida ularning oldiga bormoqchi bo‘lsam, ko‘katlardan olvolaman. U tarafdalar ancha qimmat. Yaxshigina pul bo‘ladi. Shu hovlining daromadidan yengil mashina oldik. Bolalarimizning kontrakt pullarini to‘layapmiz. Umuman olganda, bog‘ ortidan oilamizga yaxshigina sarmoya kirib kelmoqda.

Bir paytlar shunchaki bo‘sh yotgan ellik sotix maydon tashabbuskor ayovning mehnati bilan bugun kattagina boqqa aylandi. Opaning yerida uchta issiqxonadan tashqari olma, o‘rik, bodom kabi to‘rt yuzdan ortiq mevali daraxt bor. Bugun har bir nihol mo‘l hosil beradigan kattagina daraxtga aylangan. Shuningdek, chorvachilikni ham yo‘lga qo‘yishni unutgani yo‘q. Hovlining bir chetida ellikka yaqin tovuq, bir tomonida yigirma bosh qo‘y boqilmoqda. To‘rtta sog‘in sigiri esa oilani sut va qatiq bilan ta‘minlashdan tashqari, ro‘zg‘orga qo‘shimcha mablag‘ kiritmoqda.

Shahnoza opa mahallasidagi ikkita ishsiz oilaning ham bandligini ta‘minlagan. Ayni paytda Shahnoza Rahmonovaning tajribasini o‘rganish uchun bog‘da seminarlar tashkil etiladi. Issiqxonachilik yoki bog‘dorchilik yo‘nalishiga qiziquvchi tuman xotin-qizlari har doim opani izlab keladi. O‘z malakasidan kelib chiqqan holda, ularga hamisha ko‘mak berishdan erinmaydigan bog‘bon ayol shogirdlari safi ortib, uy bekalarini ham tomorqa madaniyatiga jiddiy e‘tibor qaratareb boshlaganidan mamnun. Zero, tomorqadan kelayotgan daromad oila uchun koni foyda ekanini anglagan har bir kishi mehnat qilishdan ortga chekinmasligi tayin.

Akbar RAHMONOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

## MAHSULOTNI

Yangicha yondashuvlar



## AKKREDITATSIYADAN O'TKAZISH NIMA UCHUN KERAK?

Yurtimiz iqtisodiyotini mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirish, sifat infratuzilmasini rivojlantirish borasida qator ishlar bajarilmoqda. Jumladan, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, savdodagi texnik to'riqlarni bartaraf etish iqtisodiyotning ustuvor vazifalaridan. "O'zbekiston akkreditatsiya markazi" davlat muassasasi direktori Ansbaxon ZOKIROV bilan suhbatimiz shu haqda bo'ldi.



— Akkreditatsiya butun dunyoda sifat infratuzilmasining asosiy zanjirlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, avvalo, mamlakatimizda mazkur tarmoqni rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar va ularning ahamiyati haqida fikr bildirsangiz.

— Sifat infratuzilmasi xalqaro hamjamiyatda ko'p qo'llanadigan keng qamrovli tushuncha. U muayyan mamlakat yoki jamiyatda mahsulot, xizmatning davlat tomonidan qat'iy o'rnatilgan xavfsizlik hamda sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashga qaratilgan va shunga erishish yo'lini ko'rsatib beradigan tizim. Bu tizim bir necha qismdan tashkil topgan. Mahsulotning hayot sikli, degan tushuncha bor. Odatda unga doim ham ahamiyat bermaymiz, ammo ko'p to'qnash kelamiz. Mahsulot hayot sikli ikkiga bo'lina: bozorga chiqqunga qadar va undan keyingi jarayon. U ayni shu jarayonda doimiy belgilangan talablarga javob berishi kerak. "Mendan ketguncha, egasiga yetguncha" emas, balki iste'mol jarayonida ham talabga javob berishi shart.

Akkreditatsiyaning vazifasi esa mahsulotda xavfsizlik talablarini belgilashdan boshlanadi. Dunyo tajribasida xavfsizlik

talabi davlat tomonidan belgilanadi. Xavfsizlik uchun doim javobgar davlat bo'ladi.

Mahsulot yoki xizmatlarni yetkazib berish zanjiri bir necha bosqichdan iborat. Loyihadan tortib, sotuvchigacha bo'lgan orada zanjir ishtirokchilari "iqtisodiy operator", deb nomlanadi. Ular o'ziga tegishli talablarni belgilab qo'yadi. Loyihalashdan tortib, mahsulotni xavfsiz ishlab chiqarish va iste'molchiga yetkazishgacha bo'lgan xavfsizlik ta'minlanishini nazorat qiladi. Davlat texnik reglamentlarda xavfsizlik talablarini belgilaydi. Bugun O'zbekistonda 40 dan ortiq texnik reglament qabul qilingan va jarayon davom etyapti. Parallel ravishda xalqaro tajriba o'rganilishi natijasida reglamentlar sonini oshirish emas, ko'larni kengaytirish, qamrovini aniq belgilashga e'tibor qaratilmoqda. Misol uchun, televizor, mikroto'lqinli pech yoki muzlatkichga alohida-alohida talab belgilash shart emas. Bularning barchasini texnik reglament bilan tartibga solsak, hujjatlar ko'payadi. Bu ishlab chiqaruvchiga muayyan ma'noda og'irlik qiladi. Shu bois, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda texnik reglamentlar sonini ko'paytirish emas, qamrov sohasini aniq belgilab olishga e'tibor qaratilayapti.

Endi xavfsizlik talablariga qanday qilib erishamiz, degan savol yuzaga kelishi mumkin. Unga, tabiiyki, standart talablariga rioya qilish orqali erishiladi. Ya'ni milliy standartlashtirish tizimida muayyan standartlarni qabul qilish orqali xavfsizlik ta'minlanadi. Undan keyin metrologiya yo'nalishi bor. Metrologiya bu o'lchovlar aniqligini ifoda etadi. Chunki noaniq o'lchov tufayli muvofiq mahsulot nomuvofiq bo'lib qolishi yoki nomuvofiq mahsulot o'lchovlar xato bajarilgani sabab muvofiq bo'lib tan olinishiga olib kelishi mumkin. Bu hammasi noto'g'ri o'lchovlar tufayli sodir bo'ladi. Shuning uchun metrologiyaga e'tibor qaratiladi.

Uchinchisi, akkreditatsiya va muvofiqlikni baholash. Davlat yuqoridagi mexanizmlar orqali xavfsizlik talablarini belgiladi, standartlar orqali sifatga erishish yo'lini ko'rsatadi. O'lchovlar aniqligiga erishildi. Endi hammasini bir jarayonga

kiritib, mahsulotning to'liqligicha standartda belgilangan talablarga javob berishini ta'minlash zarur. Bu aynan akkreditatsiya va muvofiqlikni baholashga bog'liq. Mazkur amaliyotda sinov va sertifikatlash, deyiladi.

Muvofiqlikni baholashning turi ko'p. Akkreditatsiya esa talablarni belgilagan, to'g'ri o'lchagan holda sertifikatlashtirish idoralari, sinov laboratoriyalari tomonidan shu mahsulotga muvofiq yoki nomuvofiq bo'yicha berilayotgan xulosalar qanchalik to'g'riligini baholab boradi. Bularning hammasi jamlab, milliy sifat tuzilmasini tashkil etadi. Mana shu formula orqali hammasi to'g'ri ketma-ketlikda, vijdonan va halol bajarilishi



kerak. Bugun O'zbekistonda shunday tizim bor. Oxirgi yil yilda qabul qilingan farmon va qarorlar tufayli sohaga e'tibor oshdi.

— Joriy yil mamlakatimizda "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yili, deb e'lon qilindi. Bu tizim atrof-muhitni saqlash va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qanday hissa qo'shishi mumkin? Ya'ni mazkur yo'nalishda sohazimning o'rni qanday?

— Bugun atrof-muhitda ro'y berayotgan o'zgarishlarning inson hayotiga salbiy ta'sirini inkor etolmaymiz. Tabiiy omillardan

tashqari iqtisodiyot rivoji ham bunda asosiy sababchi bo'lmoqda. Iqtisodiyot rivoji esa aholi turmushi yaxshilanishida muhim omil. Demak, bundan ham voz kechib bo'lmaydi. Nima qilmoq kerak? Bunga sanoatning atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirish orqali yechim topish mumkin. Bu kun tartibidagi masaladir. Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)ning 22

muddat davomida tashlayotgan chiqindigini ma'lum miqdorda kamaytirishga erishsang', degan talab qo'yadi. Ishlab chiqaruvchi korxonaning haqiqatan talabga javob beruvchi uskunalar yordamida chiqindilarni kamaytirganini muvofiqlikni baholash orqali aniqlash mumkin.

Bu tartib hozircha O'zbekistonda joriy qilinmagan, ammo shunday takliflar ishlab chiqilmoqda. Bu bitta yo'nalish. Undan tashqari ekologiya, sunni tejashga bog'liq juda ko'p tizim ham bor.

— Akkreditatsiya, sertifikatlashtirish, muvofiqlikni baholash tizimlarining xalqaro standartlarga moslashishi jahon bozoriga chiqish degani. Bu borada qanchalik natijaga erishilayapti?

— Maqsadimiz — mahsulot xavfsizligi va sifatini oshirish, raqobatbardoshligini ta'minlash hamda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning imkon qadar jahon bozoriga chiqishiga ko'maklashish.

Xorij bozoriga olib kirishdan oldin mahsulotning muvofiqligini baholay bilishimiz, sifati va xavfsizligi yuqori bo'lishiga erishishimiz shart. Buning uchun mahalliy muvofiqlikni baholash idorasini xorijdagi ayni shunday idora faoliyati bilan tenglashtirish zarur. Ikki idora bitta mahsulotga bir xil xulosa berishi kerak. Shunda xalqaro hamjamiyatga yuzlanamiz. Bu bo'yicha shug'ullanadigan xalqaro tashkilotlar mavjud. Biri — Osiyo Tinch okeani akkreditatsiya hamkorligi (APAC) bo'lsa, keyingilari Xalqaro laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish hamkorligi (ILAK), Xalqaro akkreditatsiya forumi (IAF)dir. Shu tashkilotlar faoliyatini baholab boradi. O'tgan yilgi baholash natijasi yuqori bo'ldi va faoliyatimiz xalqaro standart asosida tashkil etilgan tan olinadi. Bu borada birinchi qadamda 8 ta yo'nalish bo'yicha tan olinishga erishgan bo'lsak, o'tgan yili yana ikkita yo'nalish qo'shildi.

— 2025-yilda dunyo akkreditatsiyasi "Akkreditatsiya: kichik va o'rta biznes

vakillarining huquq va imkoniyatlarini kengaytirish" shiori ostida harakatlanar ekan. O'zbekiston akkreditatsiya tizimi bu yo'nalishda qanday ishlarni bajaradi?

— Akkreditatsiya dunyoda keng tarqalgan faoliyat turi. Xalqaro laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish hamkorligiga 100 ga yaqin, Xalqaro akkreditatsiya forumiga 70 dan ortiq davlat a'zo. Ular orasida O'zbekiston ham bor. Ushbu tashkilotlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari asosida tashkil qilingan. Faoliyatni muayyan sohaga yo'naltirish ham ana shu tashkilotlarda ovoz berish yo'li bilan aniqlab olinadi. Shundan kelib chiqib, bu yil kichik va o'rta biznes vakillarining huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga e'tibor qaratilmoqda. Chunki kichik va o'rta biznes — iqtisodiyot drayveri. Aholi bandligini ta'minlashga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadigan ham shu tarmoq. Katta korporatsiyalar hozir ishlab chiqarishni sun'iy intellekt yoki texnologiyalarga topshiryapti. Ishchi kuchidan kamroq foydalanishga harakat qilyapti. Bu mahsulot tannarxini kamaytirishga olib keladi. Kichik va o'rta biznesda bu imkoniyat yo'q. Joriy yil sohani qo'llab-quvvatlashda akkreditatsiyang o'rni mustahkamlash shior qilib olindi. Shundan kelib chiqib, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun muvofiqlikni baholash turlarini O'zbekistonda joriy qilish ko'larni kengaytirish ko'zda tutilmoqda. Zero, xizmatimizdan foydalanayotganlar hammasi — kichik va o'rta biznes vakillari. Mijozlarimizga yangi yo'nalishlar yaratish, yangi turdagi xizmatlar ko'rsatish va bu orqali ham jamiyatga foyda keltirish, ham biznes vakillarining daromad ko'rishiga hissa qo'shish — asosiy maqsadimiz.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

## "O'zbekiston — 2030" strategiyasi

## Boshlanishi 1-betda

Mazkur topshiriqlar ijrosini ta'minlash uchun joriy yil 27-fevralda davlatimiz rahbarining "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan sohani rivojlantirishning 2025-yilga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlari belgilab berildi. Unga ko'ra, xizmatlar hajmi 15 foiz oshiriladi, sohada 3 million kishi daromadli ish bilan ta'minlanadi, 52,2 mingta xizmat ko'rsatish obyekti tashkil etiladi.

Qarorda ko'plab imtiyozlar nazarda tutilgan. Xususan, 1 foizlik ijtimoiy soliq stavkasining amal qilish muddati 2028-yil 1-yanvargacha qadar uzaytiriladi.

— Mazkur imtiyoz tadbirkorlik subyektlarining 30 yoshgacha bo'lgan xodimlariga nisbatan ta'biq etiladi, — deydi Soliq qo'mitasi boshqarmasi boshlig'i Behzod Botiraliyev. — Bunda tadbirkorning har oyda to'laydigan ish haqi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,5 barobaridan kam bo'lishi kerak emas. Bugun ushbu miqdor 2 million 887 ming 500 so'mni tashkil etmoqda.



## KIZMAT KO'RSATISH SOHASI ANIQLANGAN MUAMMOLAR SAMARALI HAL ETILMOQDA

Bu imtiyozdan savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, mehmonxona, avtotransport, yuk tashish xizmatlari ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari foydalanishi mumkin.

O'tgan yilda umumiy ovqatlanish sohasida 8,1 mingta subyekt 158 milliard so'm, chakana savdo sohasida 27,9 mingta subyekt 459,5 milliard so'm, turizm sohasidagi

220 ta subyekt 17 milliard so'm miqdorida imtiyozdan foydalangan.

Reja va maqsad har bir insonda bor. Lekin moddiy jihatdan imkon bo'lmasa, uni amalga oshirish g'oyasi xayolda qolib ketishi mumkin. Qarorning ahamiyatli jihati ham shunda: ko'zda

O'tgan yilda umumiy ovqatlanish sohasida 8,1 mingta subyekt 158 milliard so'm, chakana savdo sohasida 27,9 mingta subyekt 459,5 milliard so'm, turizm sohasidagi 220 ta subyekt 17 milliard so'm miqdorida imtiyozdan foydalangan.

tutilgan har bir maqsad uchun moliyaviy manbalar ko'rsatib o'tilgan. Ya'ni 2025-yilda xizmatlar sohasi rivojlantirishga 67,4 trillion so'm kredit, xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish uchun developerlar orqali tadbirkorlik subyektlariga noturaj loyihalar lizingga berishga 4,5 trillion so'm yo'naltiriladi.

— Shuningdek, 2025-yilda 652 ta drayver loyihami infratuzilma bilan ta'minlash uchun byudjetdan 1 trillion so'm yo'naltiriladi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi boshqarmasi boshlig'i Bekzod Shukurov. — Natijada hududlarda 72 ta sohilbo'yi dam olish maskani, 62 ta zamonaviy istirohat bog'i, turizm va gastronomik yo'nalishlarga ixtisoslashgan 154 ta savdo va ko'ngilochar ko'cha, 364 ta yo'lbo'yi va boshqa servis



obyekti tashkil etiladi. Pirovardida xizmat ko'rsatish hajmi 15 foiz oshiriladi, 52 mingdan ortiq savdo-servis obyekti faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Qarorning ushbu bandini ko'pchilik kutib turgan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu taksi faoliyati bilan shug'ullanishga tegishli. Mazkur qaror bilan yengil avtotransport vositalarida yo'lovchilarni shahar, shahar atrofi va shaharlararo tashish faoliyati o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritildi.

— Taksi xizmatlari sohasida faoliyat yuritayotgan fuqarolarning soliq to'lash tartibi qanday bo'ladi, degan savol ko'pchilikni qiziqirishi tabiiy, — deydi Soliq qo'mitasi boshqarmasi boshlig'i Dildora Hoshimova.

O'zini o'zi band qilgan shaxslarning soliq davri kalendar yil va shu yil davomida mehnat faoliyati natijasida olingan 100 million so'mgacha bo'lgan daromadi soliqqa tortilmaydi. Bunda yil tugashi bilan yangi yil boshidan daromad qaytadan hisoblanadi. Soliq davrida daromadi 100 million so'mdan oshganda esa yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartib asosida soliqqa tortiladi. Misol uchun, 2024-yilda daromadi 100 million so'mdan oshmagan yoki osha ham 2025-yilda hisob-kitob noldan boshlanib, ularning 100 million so'mgacha bo'lgan daromadi soliqqa tortilmaydi.

Joriy yil 1-fevral holatiga ko'ra, o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni 4,6 milledan oshdi. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 74 foiz ko'p demakdir.

Huquqiy hujjatning yana bir ahamiyatga molik jihati shundaki, 2025-yil 1-iyuldan boshlab, 11 turdagi davlat xizmatlari va funksiyalari xususiy sektorga o'tkazilmoqda. Bular orasida sud boshqaruvchisi malaka attestatini, baholovchilarga toifalar berish, hisoblagichlarni qiyoslashdan o'tkazish, karantin ostidagi mahsulotlarni zararsizlantirish kabi faoliyat turlari ham bor.

Qarorda yaratilayotgan sharoit va berilayotgan imtiyozlarni suiste'mol qilishning oldini olish maqsadida qator nazorat tadbirlari ham belgilab qo'yilmoqda. Unga ko'ra, 2025-yil 1-apreldan boshlab soliq organlari xodimlariga nazorat-kassa texnikasini savdo terminallarini qo'llash tartibini bu-zish, xodimlarni va mehnatga haq to'lash fondini soliq hisobotida aks ettirmaslik, yer maydonlaridan hujjatsiz yoki hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanish, foydali qazilmalarni noqonuniy qazib olish yoki qazilmalar hajmini soliq hisobotida to'liq aks ettirmaslik holatlari aniqlanganda tekshirish o'tkazish vakolati berilmoqda.

Shu bilan birga, joriy yil 1-maydan boshlab avtomatlashtirilgan tizim orqali soliq bazasini kamaytirib ko'rsatish holatlari aniqlangan xavflar bo'yicha tadbirkorlik subyektlarini 10 ish kuni oldin xabardor qilish tartibi bekor qilindi. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlik subyektlarida aniqlangan huquqbuzarliklarni o'z vaqtida bartaraf etish va oldini olishga yordam beradi. Endi xavfni tahsil qilish tizimidagi 60 dan ortiq mezon ochiqlanib, qo'mitaning rasmiy saytida e'lon qilib boriladi.

Biroq shunda ham ijtimoiy adolat normalari saqlab qolinadi. Ya'ni mazkur holatlarda birinchi marotaba ogohlantirish beriladi. Uch kun muddatda aniqlangan holat bartaraf etilmasa, sayyor soliq tekshiruv o'tkaziladi va tekshiruv natijalari bo'yicha rasmiylashtirilgan dalolatnoma asosida qaror qabul qilinadi.

Shuningdek, soliq imtiyozlaridan foydalanilganidan so'ng daromad solig'i va ijtimoiy soliq bo'yicha hisoblangan soliq summasining kamayishiga olib keladigan qayta hisobotlar soliq organlari tomonidan asosligi o'rganib chiqilganidan so'ng qabul qilinadi.

Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Salomatlik formulasi

## SPORT — SOG'LOM MUHIT KO'ZGUSI

Jismoniy tarbiya va sport bilan ommaviy shug'ullanish musobaqalar o'tkazish, g'oliblik uchun kurashdan zavqlanishdan ham chuqur mazmun-mohiyatga ega. Zero, u millat genofondi, el-yurt kuch-qudrati, obro'-e'tiborini, yosh avlodlarni ham ma'naviy, ham jismoniy yuksaltiradigan eng ta'sirchan vositadir.



**Akmal XOLIQOV,**  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti jismoniy madaniyat va sport kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi

Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya hamda sportga keng jalb etish, zamon talabidan kelib chiqib axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish kabi yo'nalishlarda besh muhim tashabbus ilgari surilgan edi. Barchasi birdek yuksak ahamiyatga ega ushbu besh muhim tashabbusning ikkinchisi yoshlarni jismoniy chinqitirish, sport sohasidagi qobiliyatini namoyon qilish, keyingi avlodlarga munosib murabbiylar tayyorlash uchun zarur sharoit



yaratishga yo'naltirilgan. Besh tashabbus olimpiadasi bilan esa sport va jismoniy tarbiya yo'nalishidagi islohotlar yangi bosqichga chiqdi.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida qator tashabbuslar barobarida talaba yoshlarni sportga keng jalb qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda yurtimizda 700 mingdan ziyod talaba borligi qayd etilib, ular o'rtasida sportga havasini kuchaytirish, qamrovini oshirish muhimligi qayd etildi. Eng avvalo, sport bilan muntazam shug'ullangan talabalar o'z mutaxassisligi bo'yicha fanlarni yaxshi o'tkaziladi. Qolaversa, tirishqoqligi, tinimsiz mehnati samarasi o'laroq, o'zi tanlagan sport yo'nalishida mamlakat tomonidan jamoasidan joy olganida ko'p guvoh bo'lganmiz. Bugun dunyo tan olgan bokschi, jahon va olimpiada chempioni Bahodir Jalolov, dzyudo bo'yicha olimpiada sovrindorlari Rishod Sobirov, Abdulla Tangriyev, O'zbekiston itifoxi, futbolchi Abbas Maxsitaliyev o'z davrida "kichik olimpiada" deb nom olgan Universiada musobaqalarida toblangan.

Albatta, har bir murabbiy uchun shogirdlari yutug'i ulkan quvonch bag'ishlaydi. Sportga qaratilayotgan e'tibor oliy ta'lim muassasasida talabalarga jismoniy madaniyat va sport yo'nalishida mashg'ulotlar o'tayotgan biz,

murabbiylar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki ustozlarning mehnati samarasi talabalarimiz natijasida ko'rinadi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining jismoniy madaniyat va sport kafedrasida sportning 13 turi bo'yicha seksiyalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu to'garaklarda talabalar sport bilan muntazam shug'ullanib keladi. Universitetdagi basketbol murabbiyi sifatida talabalarimizning aksariyati sport to'garaklariga majburiyat yuzasidagina qatnashmagani komil ishonch bilan aytaman.

Ular erishayotgan natijalar salmog'i yil sayin oshib borayotir. Xususan, talaba qizlarimiz bir necha yildan beri Universiada va Besh tashabbus olimpiadasi musobaqalarining saralash bosqichida faol qatnashmoqda. Shuningdek, talabalar ligasida ham basketbolchi qizlar jamoasi yuqori natijalarga erishayotir. "Universiada — 2025" sport musobaqalarining basketbol o'yinlarida universitet talaba qizlaridan iborat jamoa saralash bahslarida ishonchli g'alabaga erishib, bellashuvning Farg'onada bo'lib o'tadigan respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Murabbiy sifatida talabalarimizni sport musobaqalariga puxta tayyorlash bilan birga, jismoniy madaniyatini rivojlantirishga ham harakat qilamiz. Chunki sportchini g'alabaga yetaklovchi muhim jihat — undagi jismoniy madaniyat. Sportchi qanday xususiyatlarga ega bo'lishi, raqibga hurmati, musobaqalarda qatnashish qonun-qoidalariga amal qilishi, intizimi — mana shular jismoniy madaniyatdir.

# BARQAROR TURIZM

## SAYYOHLAR VA MAHALLIY AHOLI O'RTASIDAGI MUVOZANATNI TA'MINLAYDI

Barqaror turizm sayyohlik sohasini, turistik yo'nalishlarni tabiiy, madaniy va ijtimoiy muhitga zarar yetkazmaydigan tarzda tashkil etishdir. Uning asosiy maqsadi resurslarni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilish orqali turistlar hamda mahalliy aholi ehtiyoji o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdan iborat. Shuningdek, u ekologik me'yorlarga rioya qilish, tabiatga salbiy ta'sirni minimallashtirish, sayyoh kelgan mamlakatning madaniyatini, an'analari va ijtimoiy xususiyatlarini hurmat qilishni ham taqozo etadi.

Turizm industriyasiga barqaror yondashuv tarmoqning uyg'un va mutanosib rivojlanishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Bu esa sohadagi barcha ishtirokchining uzoq muddatli manfaatini hisobga olish imkonini beradi.

Birinchi, barqaror turizm ekologik muvozanatni saqlash va istiqbolli turizm yo'nalishlari jozibadorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi, mahalliy an'analar va madaniyatga hurmatni rag'batlantirish ijtimoiy va madaniy foyda keltiradi. Ushbu yondashuv sayyohlar va mahalliy aholi o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni rivojlantirish, madaniy merosni saqlashga yordam beradi hamda ijtimoiy inklyuziyani qo'llab-quvvatlaydi.

Uchinchidan, ish o'rinishi ochish, investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy aholiga daromad keltirishni qo'llab-quvvatlaydi. Eng asosiysi, turizmning iqtisodiy foydasi bir necha manfaatlar tomonidan qo'lida to'planib qolmay, ko'proq odamga foyda keltirishi uchun adolati taqsimotni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, an'anaviy turizm duch keladigan muammolar, masalan, atrof-muhit degradatsiyasi, ijtimoiy tengsizlikni hal qiladi. Xullas, barqaror turizm sayyohlik industriyasini rivojlantirishning ajralmas qismi bo'lib, sohaning barcha — ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jabhalari nisbatan muvozanatli hamda mas'uliyatli munosabatlarni rag'batlantiradi.

Turizm iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar kamayishi va ifloslanish kabi global muammolarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Sayyohlik karbonat angidrid chiqindilarining 5 foiz ko'payishiga olib keladi. Mehmondo'stlik sektorida bu ko'rsatkich 30 foizni tashkil qiladi. Iqlim o'zgarishi qor qoplami ko'lami kamayishi va ekstremal ob-havo hodisalari orqali turizm yo'nalishlariga ta'sir qiladi. Suv va o'rmon kabi tabiiy resurslardan foydalanish hajmini oshiradi hamda o'rmonlarning kesilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, okean va dengizlarning plastik bilan ifloslanishi, transport tufayli havoning buzilishiga hissa qo'shadi va katta miqdordagi chiqindini hosil qiladi.

Suvni tejash, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish va turizmning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish uchun barqaror amaliyot zarur. Misol uchun, mehmonxonalarda suvni tejash, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish lozim.

Turizm "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini samarali joriy etish mahalliy hamjamiyat va boshqa manfaatdor tomonlarning faol ishtirokini talab qiladi. Davlat barqaror amaliyotlarni qo'llab-quvvatlovchi qonun-qoidalar orqali "yashil" turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

"Yashil" turizm atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish bilan birga iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga ham yordam beradi. Oziq-ovqat korxonalari, madaniy meros va ekologik

toza ishlab chiqarish barqaror rivojlanish maqsadlarini qo'llab-quvvatlaydi hamda aholining hayot sifatini yaxshilaydi. Turizm "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish aholi bandligini oshirish, resurslarni yaxshiroq boshqarish, tabiiy va madaniy boyliklarni saqlashga olib keladi.

Xalqaro valyuta jamg'arasi ma'lumotlariga ko'ra, iqlim o'zgarishi ekinlar hosildorligini 15-30 foiz kamaytirishi mumkin. Bu sayyohlarni "yashil" turizmning muhim tarkibiy qismi bo'lgan mahalliy ekologik toza mahsulotlar bilan ta'minlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda bir dollarlik yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish uchun 0,4 kilogramm neft ekvivalenti sarflanadi. Bu



jahondagi o'rtacha ko'rsatkich (0,11 kilogramm) dan 3,6 barobar ko'p.

Shunday ekan, "yashil" turizm uchun energiya sarfini minimallashtirish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishni hisobga olgan holda infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizdagi issiqxona gazlari chiqindisining 94 foizi karbonat angidrid va metan bilan bog'liq bo'lib, bu hududlarning ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. "Yashil" turizm joriy etilgan mehmonxona sektorida ekologik toza transport va energiya tejoychi texnologiyalardan foydalanish orqali zararli chiqindilar ulushini kamaytirish mumkin.

Iste'molchilarning xohish-istaklari va xulq-atvori o'zgarishi sharoitida barqaror turizm sayyohlik industriyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar sayyohlarning ekologik bilimni oshirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish istagi bilan bog'liq.

Jahon turizm industriyasi "yashil" mehmonxonalar va ekologik toza sayohat paketlari kabi barqaror mahsulotlarni faol rivojlantirmoqda va bozorga chiqarmoqda. Turizmni raqamlashtirish esa jarayonlarni tezlashtirish orqali samaradorlikni oshiradi va atrof-muhitga ta'sirini kamaytiradi.

Sayyohlar uglerod izini kamaytirish uchun samolyot o'rni poyezd yoki avtobus kabilarni tobora ko'p tanlayotgani bu borada yangi tendensiyalardan ibidir. Tadqiqotlarga ko'ra, yoshlar sayohat qilishda atrof-muhitga ko'proq e'tibor beradi. Bu barqarorlik tomon umumiy ijtimoiy siljishni aks ettiradi.

Keyingi yillarda barqaror turizm jahon sayyohlik industriyasining ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda. Chunki u tabiiy va madaniy resurslarni asrash, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeiini mustahkamlashga xizmat qiladi. Uning amaliy jihatlari turli sohalarda, jumladan, mehmondo'stlik, transport va ekologik tashabbuslarni qamrab oladi. Bu sohalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, mahalliy hamjamiyatlarni jalb etish va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga oluvchi kompleks yondashuvni talab qiladi.

Ko'pgina mehmonxonalar energiya sarfini sezilarli darajada kamaytiradigan LED lampalar, harakat sensori va avtomatik yoritishni boshqarish kabi energiya tejoychi

texnologiyalarni joriy qilmoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan ham faol foydalanayapti. Mahalliy mahsulotlarni sotib olish transport bilan bog'liq havoning uglerod bilan ifloslanishini kamaytiradi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Bu ham mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga turki beradi.

Barqaror turizm uchun karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishga yordam beradigan jamoat transporti tizimi faol ishlab chiqilmoqda. Elektr transport vositalari, elektron velosipedlar va ekotransport vositalarini ijara berish ham ommalashmoqda.

Dunyoda barqaror turizmni "yashil iqtisodiyot"ga integratsiyalash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Xitoy "yashil" moliya va texnologik innovatsiyalarni o'zlashtirmoqda. Barqaror turizmni sezilarli darajada oshirib, uglerod chiqindilarini kamaytirmoqda. Indoneziya "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini turizmga kirituvchi qoidalarini ishlab chiqdi. Polsha mintaqaviy strategiyalar orqali barqaror turizm uchun "aqlli" shaharlar konsepsiyasidan foydalanayapti.

Turkiyada turizmni rivojlantirish strategiyasining bir qismi sifatida ekoturizm zonalarini barpo etish va sayyohlikni rejalashtirishda atrof-muhit omillarini hisobga olishga urg'u beriladi. BAA ekoturizm va tabiiy muhofaza qilish loyihalari amalga oshiryapti. Mamlakat barqaror turizm bo'yicha xalqaro forumlarda ham faol ishtirok etayotgani uning ushbu sohaga qiziqishini tasdiqlaydi.



**Nurisлом TO'XLIYEV,**  
O'zFA akademigi,  
Olim OSTONAQULOV,  
O'zbekiston xalqaro ilom akademiyasi professori



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

## JAYHUN TOMONLARDA

## JO'SH URAR HAYOT



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



## O'ramizdagi odamlar

Shu vazifani gardaniga olibdiki, bir xil holat takrorlanadi: safardan qaytayotganda, samolyot yo poyezdda Nukusga yaqin qolganida yurak urishi tezlashganday bo'ladi. Bir necha soat oldin telefon orqali bog'lanib, mutaxassisi Baxtiguldan:

— Opa, tinchlik, eson-omon yetib keling, — degan gapni eshitgan bo'lsa-da, yana tanish ismni topib, telefon tugmasini bosadi.



Qutibeka RAHIMBOYEVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

— Gulasal bilan bog'landingizmi? Ertaga sahar yo'lga chiqishini biladimi, bu galgi seminarimiz yurtingizning eng chekka hududlarida birida o'tadi...

— Xavotir olmang, tadbirkorimiz nihoyatda mas'uliyatli, o'z vaqtida yetib keladi...

Bir oz xotirjam turganday bo'ldi-uy, zum o'tmay, navbat kutib turgan yana bir ish esiga tushdi. Doim, qayerda bo'lmasin, ishini o'ylaydigan bu qahramonimiz Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Maryam Ahmedovadir. Ishbilanmonligi, mas'uliyati bilan ishonch qozongan shijoatli ayol esa beruniylik parrandaboqar Gulasal Allabergenova.

Gulasal avval uy sharoitida jo'ja ko'paytirishning hadisini oldi. Birovning bolasi tez katta bo'ladi, degan gap bekorga aytilmagan. Uning ham ishini tashqaridan kuzatsangiz, oson ko'rinadi. Ammo bu jonivor jimitdagi bo'lgani bilan nihoyatda ta'bi nozik. Suvi, doni, havosi — hammasi qonun-qoidasiga mos bo'lishi kerak. Parvarishda o'zgina

e'tiborsizlik bo'lsa, "tap" etib tashlab beradi. Ana unda hamma mehnat suvga oqadi. Ammo Gulasal xato qilmadi. Ishga e'tibor bilan bingra bor mehnatini ham sarflagani shunday samara berdi. Xalq orasida "Yosh tadbirkor inkubatorida jo'ja ko'paytirish boshlabdi. Bittayam xato bo'lmas ekan", degan yaxshi gap tarqadi. Bu xushxabar ishingning ko'zini biladigan ayollarni axtarib yuradigan xotin-qizlar yetakchisi Maryam Ahmedovaga ham yetib keldi. Uning asosiy vazifalaridan biri "Ayollar daftrasi"da fuqarolar bandligini ta'minlash



bo'lgani uchun Gulasalni tumanlarga olib yura boshladi. Hududlarda ishga ehtiyoj bor ayollar bilan o'tkaziladigan yig'ilishlar, seminarlar Gulasal parranda boqish borasida dars beradi. U yig'ilganlarga o'z ishini ipidan ignasigacha sodda, ishonarli tilda tushuntirardi, umrida inkubatorini ko'rmasdan qiz-juvonlar xuddi ertaga tuxum olib, ish boshlasa, indimiga jo'jalarga qoralarish chiqadigandek g'ayrat bilan tarqalardi.



Qoraqalpog'istonda xotin-qizlar orasida keng tarqalgan tadbirkorlikning yana bir turi qo'ziqorin bilan bog'liq. Keyingi yillarda aholining jon boshiga to'g'ri keladigan daromad oshgani, turmush darajasi yuksalib borayotgani kishilarning ovqatlanish madaniyatida ham aks etadi, albatta.



chumolidek mehnat qilayotgan Sayyora kabi ayollarning munosib hissasi bor.

Gap Qoraqalpog'iston xotin-qizlari orasida ishonchli muhitni yaratish, ularni boqimandlik kayfiyatidan xalos qilish, o'z imkoniyatlariga ishonch uyg'otish haqida borar ekan, Beruniy tumanidagi Bo'ston mahallasida gul ko'chati yetishtirish borasidagi ishlarga ham to'xtalish joiz. Bu mahallaga "Mehtat shubhrati" ordeni sohibi Ro'zibika Aytboyeva raislik qiladi.

Hukumat darajasidagi farmonu qarorlarimizda aholi bandligini ta'minlash, ularni daromad keltiradigan halol kasb-korlarga o'rgatish kabi fikrlar aks eta boshlagach, rais mahalla faollarini yoniga olib, hududini aylanib chiqdi. Tijorat bilan shug'ullanadigan bir-ikkita oiladan tashqari uchtagina xonadonda issiqxonalar bor ekan. "Kam ta'minlangan oilalar 150 ta bo'lsa... Hammasida ozi, ko'pmi, tomorqa bor. Aksariyati mol uchun o'tekib qo'yibdi, xolos. Shu yerlardan foydalanib bo'lmamkan?" Mahalla yetakchisining bu fikri hamrohlariga ma'qul tushdi. Ko'p bilan kengashib, bir qarorga kelishdi: issiqxona qurishadi va ko'chachilik bilan shug'ullanishadi. Yo'llarni, ko'chalarni, mahallalarni, mablag' bo'lsa, ularning barini osoniga o'zgartirish mumkin.

Ammo inson ruhiyatini o'zgartirish qiyin masala. Ayniqsa, mehnatga o'rgatish uchun nihoyatda katta sabr-bardosh kerak. Ro'zibika opa gul va pomidor, bodring kabi sabzavot mahsulotlari ko'chagini ko'paytirish bo'yicha ancha-muncha tajribaga ega ovsinlar Guljamol Asqarova va Oysara Xalloyeva yuzlanib, niyatini aytdi. Mehnatga o'rgangan odamlar mashaqqatdan qochmaydi.

— Ehtiyoj borlarga savob deb bir kosa osh bilan ikkita issiq non bergandan ko'ra, bir dona ko'chat yetishtirishni o'rgatishning savobi

Dasturxonimizga Yevropa taomlari kirib kelishi bilan qo'ziqorinaga ehtiyoj oshdi. Taxiatsoshlik Sayyora Allayorova ijtimoiy tarmoqlardan o'qib, o'rganib, uy sharoitida qo'ziqorin yetishtirishni yo'lga qo'ydi.

"Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz 32 ming 820 xotin-qizning bandligi ta'minlandi", deya yirik anjumanlarda aytilgan quvonchli xabarlar, salmoqli raqamlarda kichik jussasi bilan

## HAR SONIYA IZLANISH TALAB ETADIGAN FAN

## YOXUD TARBIIYANING TAYANCH USTUNLARI HAQIDA O'YLAR

Ota-ona uchun eng yaxshi baxt farzandining kamolini ko'rishdir. Shu bois, ular doim bolalarining iqbolini ko'rishni orzu qiladi. Xalqimiz, orzu bilan og'iz chuchimas deb bejiz aytmagan. Har bir maqsadning ortida mashaqqatli mehnat, izlanish yotadi. Ayniqsa, farzand tarbiyasidagi me'yorni gavhar tarozida tortsang-da, o'lchovida misqolcha ham xato qilmaslik dardkor. O'ta murakkab, zargarning mahoratidan ham nozik, mas'uliyatli vazifa. Buni har bir inson zargarona bajargisi keladi.

Olti oylik bolasi donishmandga olib borgan ayol tarbiyada olti oy kechikkanini hammamiz eshitganmiz. Tarbiyani qachon boshlamok kerak? Bu borada mutaxassislar — statistikaning turli usullari bor. Ammo natijadagi o'zgarishdan ko'ngil to'ladi? Ha, deb aytishga o'ylanib qolamiz. Tarbiyaning formulasi yaratish kerakmi? Matematik qonuniyatlar bo'yicha katta sondan kichik son ayirilsa, qiyamat hamisha manfiy chiqishi oddiy hisob! Ammo... tarbiyada bunday kamomadga yo'l qo'yilmas, jamiyat — hayot tenglamasidagi muvozanat qanday bo'ladi? Gap ana shunda.

## TARBIYA VA TALAB TAROZISI

Tarixda sarkarda bobomiz Amir Temur kelinlarini homiladorlik paytida go'zal joylar tomohasiga olib chiqishlarini tayinlagan. Ayollariga chiroyli munosabatda bo'lishni o'g'illariga majburiyat qilib yuklagan. Bahavo manzara va ko'ngilli sayohat homilaning qalbin va jisman go'zal tafakkur bilan shakllanishida asosiy mezonligi isbotlangan.

Ammo bunga doim ham yetarlicha amal qilavermaymiz. Gohida ko'rib kuzatganlarimiz

tasavvurimizga muhrlanib, eslaganimizning o'zida kayfiyat ko'tariladi. Oddiy bog'da sayr qilayotgan oila. Bahavo manzara. Qushlarning chug'uri, xonishi, atrofdegilarning kayfiyati — qizaloqning onasiga bir donagina gul berishi, umr yo'lodshining mehnat bilan uzatilgan gul bo'lsa, yana homiladorga issiq tutilgan bir piyola choy... Oddiy holatlar zamiridagi zalvorli masalaga yechim! Albatta, bu rivojlanayotgan homilaning tarbiya uzoqasi.

Dunyo tajribasiga nazar solsak, yapon ayollari homiladorlik vaqtida o'g'ra qorab chiroyli xayol surar, eng yaxshi kitob mutolaasi bilan band bo'lar ekan. Ularning shiori — "Tajribani dunyodan, tarbiyani o'zimizdan o'rganamiz". Turkiyada "Homila mutolaasi" maxsus kursi bo'lib, rivojlanishning oylariga qarab o'qiladigan kitoblar belgilanib, bu homilaning aqliy tafakkuri rivojlanishida beqiyos ahamiyatga egaligi o'rganilgan.

Yana asosiy mas'uliyat ayolning zimmasiga yuklatiladi. U vazifasini ado etishi uchun atrofdegilarning munosabati, yordami, qo'llab-quvvatlashi katta ahamiyat kasb etadi. Avvalo, kelajak avlod tarbiyasiga ham tarbiya kerakligini unutmaslik zarur. Aytishadiku, yigitni tarbiyalagan — bir kishini, qiz bolani tarbiyalagan — millatni tarbiyalaydi. Millat vorislarini vujudida ko'tarayotgan ayol ilmi farzandlar

kamolida bo'y ko'rsatadi. Irsiyat, gen haqida gap borganida dunyo tan olgan ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz. Bir muddat milliylik va tarbiyada uzilgan najir natijasidan ozorlandik. Ammo "bordan yo'q bo'lmaydi, yo'qdan bor bo'lmaydi" tamoyilini tahlil qilsak, yaratilgan sharoit, muhit mo'tadillidigan genlar uyg'onishi muqarrar.



Bugun ilm-fan, tibbiyot, san'at, sportda yoshlarimiz erishayotgan natijalar quvonarli. Bug'doy ekib, bug'doy hosilini kutayotgan xalq — Uchinchi Renessans ostonasida. Bu — oltin halqning zanglamasligi va davomiyligidan dalolat! Dunyoning shunday bebaho ne'matlari borki, vaqtida qadriga yetilsa, umr hikmatga to'ladi. Yashashning mazmun-mohiyati aynan shunday. Tarbiyada kichik — ahamiyatsiz narsaning o'zi yo'q. Oddiy so'zlashuv, o'zaro munosabat, muomalada ichki tarbiya madaniyatining aks etishi, latif suhbatlar og'ushida ko'z ochayotgan go'dak dunyoni shunday tasavvur qiladi. Abdulla Avloniy ta'bir bilan aytganda, tarbiyadagi eng ahamiyatli vosita o'rnatilgan bo'lishidir. Bu borada mislsiz natijalarga erishib, tarixga nomi muhrlangan kishilarga nazar solsak, ularning hayotida



enagalari, ustozlarining ta'siri beqiyos ahamiyat kasb etganini ko'ramiz. Bugun esa bog'cha va maktablardagi tarbiya usullarida qo'shimcha o'rganishimiz lozim bo'lgan mablag'ga murojaat qilish zarur. Zero, o'rganish hamisha yutuqning garovi bo'lgan. Ta'limdagi yutuqning asosiy zamin tarbiya ekani dunyo tajribasida ham isbotlandi. Bu borada pedagoglarning har biri tarbiya akademiyasi darsini o'zlashtirishi, ko'zga ko'rinmas, nozik rishtalarni his qilish darajasiga keng qamrovi bo'lishi esa natijaning barqarorligini ta'minlovchi asosiy kuchdir. Zero, har qanday tarbiyaning o'q ildizi oilaviy muhitga tutashishi asl haqiqat.

Tarbiya o'lchamlari haqida o'ylaganda tarozining pallasiga munosib tosh og'irligi va yengilligi haqidagi fikrlar nihoyalannaydi. Nimaga? Oila — bog'cha — maktab tarbiyasidagi uzviy donishmandlik ekilgan niholning chinor bo'lib qad tashlagiga ishonch beradi. Ildizi chuqur otgan har bir ko'chat baquvvat o'sadi. Tilimizda "tomizg'i" degan ajoyib so'z bor. Unda bir qoshiq achchiq qatiqdan bir chelak achchiq qatiq yoki bir qoshiq mazali qatiqdan bir idish mazali qatiq hosil bo'ladi. O'sha o'lchov natijasi aksiomaga

o'xshaydi, isbot talab qilmaydi. Tarbiya — millatning ko'zgi, oynasi. Uning tiniqligini ta'minlash har bir kishining zimmasidagi mas'uliyati bo'lmog'i lozim... Shunda oqsashlar umumiy tizimga borib taqalmaydi — ommalashgan tarbiya shakllanadi.

Tarbiya — dunyoni tutib turuvchi ustun. Uning mustahkamligini ta'minlovchi vosita — to't tomonga qarasa: tarbiyani tilda emas, amalda ko'rsatishimiz — ko'z tarbiyasi! Ko'z aqlga xabar jo'natadigan quvvat — axborot manbai. Tarbiya bir maromda parvarish talab qiladigan gijoh. Maqsad faqat marra ga yetishmi? Yo'q, ko'zlangan natijaga erishish. Unda eskicha o'y bilan yangicha o'y o'rnatidigan farq, kechagi o'y bilan bugungi o'y o'lchovi — o'sish sur'atini belgilovchi omilning bir ko'rinishi.

Donishmandlar "Hamma uxlayotganda sen o'qisang, hamma ishlaganda sen halovat topasan", deydi. Tarbiya ilmi esa uxlayotganda ham o'rganishdan, kuzatishdan, izlanishdan to'xtash aslo mumkin bo'lmagan noyob fanki, uning sabog'i hayot yo'llarini munavvar qiladi.

Dilfuza SHOMALIKOVA, jurnalist

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 346.  
37346 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Jonibek Alijonov  
Musahhih: Sherzod Mahmudov  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy